

**“DUTORCHI QIZLAR” ANSAMBLINING O‘ZBEKISTON MUSIQA  
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Bahora Amrullayeva**

Bux.DU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası, “Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy  
cholg‘ular)” mutaxassisligi,  
2-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: B.I. Mustafayev, professor**

**Annotatsiya:** maqolada xotin-qizlarning musiqa ijrochiligiga jalb etilishi, “Dutorchi qizlar” ansamblining milliy badiiy jamoa sifatida tashkil qilinishi, uning ijodiy yo‘li hamda mamlakat musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy musiqa, dator cholg‘usi, badiiy jamoa, ijrochilik uslubi, ansambl faoliyati, repertuar mazmuni, musiqiy meros, ma’naviy tarbiya, ansambl tarkibi, ansambl ijrochiligi

Musiqa inson ma’naviyatini boyituvchi, qalbgga zavq bag‘ishlovchi san’at turidir. Milliy musiqa madaniyatimizning muhim qismi bo‘lgan cholg‘u asboblari ichida dator alohida o‘rin tutadi. Uning nafis tovushi, qadimiyligi va xalq orasidagi keng tarqalganligi bilan ahamiyatlidir.

Abdurauf Fitrat musiqashunoslik ijodining muhim jihatlaridan biri – Sharq cholg‘u asboblari bo‘lib, u milliy sozlarimizning har biriga alohida ta’rif berib o‘tgan. “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobining 25-33-34 sahifalarida milliy cholg‘ular tanbur, rubob, g‘ijjak, qo‘biz, chang, balabon, karnay, doyra kabilar qatori dator sozi, uning tuzilishi va ijrochiligi haqida shunday bayon qilgan:

“Dutor chalish tanbur chalishga qaraganda yengil bo‘lgani uchun bu cholg‘u xalq orasida tanburga ko‘ra ko‘proq chalinadir. Buning dastasi 70-75 santimetr bo‘lib, kosasining o‘lchami 20x45. Pardasi ba’zi o‘rinlarda 13, ba’zi o‘rinlarda 14 tadir. Pardalarning ozligiga uchundirkim “Shashmaqom” kuylari dator bilan chalinmaydir. Cholinmoq majburiyatida qolinsa kuyning pardalarini o‘zgartirib dutorga bo‘lg‘on pardalarga qaratib chalinadir[1].

Azaldan dator sozi milliy madaniyat va ma’naviyat timsoli sifatida qadrlanib kelinadi. Dutor — o‘zbek xalqining eng qadimiy cholg‘ulari sirasiga kiradi. U nafaqat

musiqiy asbob, balki axloqiy, ma'naviy va estetik tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. U orqali yosh avlod xalqning o'tmishi, urf-odatlar va milliy ruhiyati bilan tanishadi. Dutor ijrosi orqali sabr-toqat, mehnatsevarlik, hurmat va nafosat tuyg'ulari shakllanadi[2]

Dutor ijrosining axloqiy ta'siri ham e'tiborga loyiq. "Dutor chalish nafaqat musiqiy mahoratni, balki shaxsiy kamolni ham talab etadi. Uning ijrosi insonni: diqqatli bo'lishga; intizomli va irodali bo'lishga, go'zallikni his etishga o'rgatadi. Bu jihatdan dator musiqa maktablari va kollejlarda axloqiy-estetik tarbiya vositasi sifatida qo'llaniladi"[3].

"Xalq pedagogikasida dator kuylari vositasida yoshlarga mehr-oqibat, mehnatga muhabbat, vatanparvarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr kabi insoniy sifatlar singdirilgan. Masalan, "Gulobod", "Buxoro", "Navro'z" kabi kuylar xalq ruhiyatini tarbiyalagan"[4].

"Musika ta'limida dutorni o'rgatish jarayonida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, jamoaviy ijro, sahna madaniyati yoshlarda mas'uliyat va jamoaviy fikrni shakllantiradi. Bu jarayonda ustoz-shogird an'anasi katta ahamiyat kasb etadi"[5].

"Dutor kuylarining melodik tabiati orqali insonda go'zallikni his etish, musiqa orqali ruhiy poklanish va ichki uyg'unlik tarbiyalanadi. Bu orqali yoshlar nafaqat cholg'u ijrochisi, balki ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanadi"[6].

O'zbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishda dator ijrochiligining o'rni va ahamiyati katta. "Dutorchi qizlar ansambli" — O'zbekistonda xotin-qizlardan tashkil topgan milliy ansambl bo'lib, aslida cholg'u va ovoz san'atining uyg'unlashgan shakli sifatida shakllangan. Ansambl uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan.

Ansamblning ilk shakli 1939-yilda O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida "Dutorchi qiz-juvonlar" nomi bilan tashkil etilgan bo'lib, uning faoliyati L. Sarimsoqova (badiiy rahbar), YU Rajabiy (musiqiy rahbar) hamda G.Raximova (baletmeyster) lar tomonidan boshqarilgan. Repertuarida "O'zganacha", "Quling", "Tanavor", "Hakkalakam o'ynasam man", "Yorginam" va boshqa o'zbek xalq va bastakorlarning kuy va qo'shiqlari o'rin olgan edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida ansambl a'zolari faoliyatini davom ettirib, front konsert brigadalari tarkibida konsert spektakllarda ishtirok etishgan. Keyinchalik, 1958-yilda yangi shaklda "Dutorchi xotin-qizlar ansambli" tashkil etilgan. Ammo

1964-yilda tarqalgan. 1977-yilda Toshkent shahridagi madaniyat uyida A. Ilyosov boshchiligida “Dutorchi qizlar ansambli” qayta tashkil etilgan.

1979-yilda rasman O‘zbekiston radiosi va televideniya qoshida “Dutorchi qizlar” ansambli sifatida kiritilgan. 1995-yilda ustoz G‘anijon Toshmatov nomi bilan atala boshlangan.

Ansambli mamlakatimiz musiqa madaniyatida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, u milliy musiqa an‘analarini saqlash, yanada rivojlantirish va xotin-qizlar o‘rtasida ijrochilikni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynagan badiiy jamoalardan biri bo‘lib, badiiy faoliyatini davom ettirgan. Ansambli repertuarida o‘zbek xalq kuylari, laparlar, yalla va maqomiy yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ularni xotin-qizlar tomonidan ijro etish orqali keng ommaga yetkazilgan. Shu bilan birga, ansambli ijodiy faoliyati davomida unutila boshlagan yalla va laparlar qayta tiklangan.

Tarixiy manbalar ma‘lumotlariga ko‘ra, xotin-qizlarni musiqa cholg‘u sozlari (xususan dutorda) ijrochiligini shakllantirish va rivojlantirib borish muhim ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etgan. Masalan, 1979-yilda ansambлга qabul jarayonida maktab o‘quvchilari tanlanganligi ta‘kidlangan. Bu holat xotin-qizlarning musiqa san‘ati va ijrochiligidagi ishtiroki va kasbiy mahoratini oshirishda bir qadam bo‘lgan. Badiiy jamoa 600 dan ortiq asarni ijro qilgan va ular radioda “Oltin fond”da saqlangan. Repertuarida o‘zbek, rus, qozoq, tojik, uyg‘ur kabi xalqaro xalqlar qo‘shiqlari mavjud. Ansambli tarkibida Zamira Suyunova, Zulfiya Rahmatullayeva singari e‘tiborga molik sozandalar, xonandalar va musiqachilar faoliyat ko‘rsatgan.

Ansambli jamoasi milliy va xalqaro sahnalarda o‘zbek milliy musiqa san‘atini namoyon etishda ham samarali natijalarga erishgan. Ansamblning ijodiy yo‘li xususida G‘. Zuparova[7]ning “G‘anijon Toshmatov nomidagi ‘Dutorchi qizlar’ ansambli tuzilishi tarixi”ga doir maqolasida badiiy jamoa tashkil etilishining 40 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif — ansamblning ijod yo‘li, o‘ziga xos ijrochilik uslubi birinchi tuzilishi ishtirokchisi shaxsiy xotiralardan yozilgan

Ansambli milliy bayramlarda, konsertlarda, televideniya va radioda faol ishtirok etgan. Masalan, 2018-yilda kecha konsert dasturi taqdim etilgani xabar qilingan. Shu bilan birga jahon bo‘ylab gastrollarga qatnashib, o‘zbek musiqasini xalqaro auditoriyaga yetkazgan.

Dutorchi qizlar ansamblning repertuaridan “O‘zganча” — ansambli repertuarida ishlatilgan o‘zbek xalq qo‘shig‘i, “Quling”, “Tanavor”, “Hakkalakam

o‘ynasam man”, “Yorginam”, “Omon yor”, “Ey nozli yorim” kabi taronalari xalq orasida keng tarqalgan.

Ansambl faoliyati orqali yoshlar, o‘quvchi-talabalar, xotin-qizlar musiqa ta’limining bir qismiga aylantirilgan. Ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda xizmat qilgan. Bu esa oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida “Dutorchi qizlar” ansambli kabi jamoalar tashkil etilishi va ularning faoliyatini rivojlantirishga ham samarali ta’sir ko‘rsatgan.

Xullas, “Dutorchi qizlar ansambli” — bu bir tomondan milliy musiqiy an’analarni saqlash va targ‘ib qilishning vositasi bo‘lsa, boshqa tomondan esa xotin-qizlarni musiqiy-badiiy ijodiyot sohasiga jalb qilish uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Ansambl o‘zining faoliyati bilan milliy musiqamizning madaniy boyligini saqlab qolish va yangicha tadbirlarda keng targ‘ib etishda katta hissa qo‘shgan. Uning faoliyati musiqiy ta’limdan to sahnada ijrochilik san’atigacha, milliy qadriyatlardan xalqaro miqyosda tinglovchigacha bo‘lgan keng imkoniyatlarni yaratganligi bilan qimmatlidir.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Saidov Y. Mustafoyev B. Fitratning milliy til va musiqa taraqqiyotidagi o‘mi. Monografiya. -Toshkent. 2024 “Shafolat nur fayz”nashri yoti -B. 82-83.
2. Маннопов С. “Ўзбек халқ мусиқа маданияти”\* — Т.: “Фан”, 2012. — Б. 46–49.
3. Курбоналиев Н. “Мусиқа таълимида миллий чолғуларнинг ўрни” — Т.: “Ўқитувчи”, 2019. — Б. 82–86.
4. Хайруллаева Х. “Ўзбек миллий чолғулари ва уларнинг маънавий тарбиядаги аҳамияти” — Журнал: Ижод ва Ифода, №3, 2020. — Б. 33–37.
5. Юнусов О., Хайруллаева Х. “Ўзбек миллий чолғуларимизнинг ҳозирги кунгача сақланиб келган турлари ва тарихи” — “Экономика и социум”, №6(85), 2021. — Б. 425–429.
6. Абдуллаева Ш. “Мусиқа воситасида эстетик тарбиянинг шаклланиши” — Т.: “Санъат”, 2018. — Б. 59–63.
7. Zuparova F. —“G‘anijon Toshmatov nomidagi ‘Dutorchi qizlar’ ansambli tuzilishi tarixi, jurnal O‘zDSMI xabarlar, 2019, №2019/2(10), - B.41–44
8. Mustafayev B.I. Maktabda musiqiy ta’lim faoliyatlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. ISSN 2992-9024 (online) 2025, vol.3. - B.175-184.

9. Mustafayev B.I. Musiqa ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalarning roli. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. №9.-2025.-Б.222-225.

10. Mustafayev B.I. Maktabda musiqiy ta'lim faoliyatlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. ISSN 2992-9024 (online) 2025, vol.3. - B.175-184.

11. Mustafayev B. I. Musiqa ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalarning roli. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. № 9. 2025.- Б.222-225.

12. Mustafayev B. I. Musiqa ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalarning roli. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. № 9. 2025.- Б.222-225.

13. Мустафаев, Бахтиёр Ибрагимович. "Некоторые вопросы развития профессиональных навыков учителя музыкальной культуры." *Academy* 11 (62) (2020): 47-50.

14. Мустафаев, Б. И., & Нуруллаев, Б. Г. (2021). ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБУЧЕНИЯ ДЕТСКИМ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ В СИСТЕМЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academy*, (3 (66)), 45-47.

15. Мустафоев, Б. И., & Самиева, М. А. (2021). БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ. *European science*, (2 (58)), 26-28.

16. Мустафоев, Б. И., & Авлиякулов, У. У. У. (2021). Некоторые вопросы формирования компетенций грамотности учащихся на занятиях по музыкальной культуре. *European science*, (2 (58)), 23-25.

17. Мустафоев, Б. И. (2019). Особенности уроков музыки в общеобразовательных школах. *Достижения науки и образования*, (1 (42)), 46-48.

18. Ашуров, Б. Ю., & Мустафоев, Б. И. (2023). Роль Бухарских народных песен в эстетическом воспитании учащихся, музыкальное воспитание учеников подростков средствами макама. *Science and Education*, 4(10), 234-239.

19. Мустафаев, Б. И., & Нуруллаев, Б. Г. (2021). ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБУЧЕНИЯ ДЕТСКИМ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ В СИСТЕМЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academy*, (3 (66)), 45-47.